

Biz g'olib bo'ldik

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldag'i "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-sun Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi va O'zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan tasdiqlangan "Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi"da Oliy ta'lif muassasalari o'rtasida "Tafakkur sinovlari" Respublika tanlovini tashkil etish, o'tkazish hamda tanlov yuzasidan Tashkiliy ishchi guruh tuzilgan va tasdiqlangan.



Tashkiliy ishchi guruhning 2019-yil 14-fevraldag'i 1-son bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida: 2019-yilning 16-aprel kuni "Tafakkur sinovlari" Respublika tanlovining Toshkent shahar 2-bosqich saralash bahsi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida o'tkazildi. Tanlovda 4 ta oliy ta'lif muassasasi TAQI, TDPU, TTESU, TIQXMMI jamoalari Nizom asosida 4 ta shart bo'yicha sahnaga chiqishdi. Jamoalar saralash bahslariga yuqori darajada tayyorgarlik ko'rishganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.



Jamoalar chiqishlarini 5 nafar hakamlar hay'ati a'zolari kuzatib borishdi hamda nizom asosida baholashdi. Yakuniy natijalarga ko'ra 4 ta shart bo'yicha o'zlarining nizom bo'yicha ajoyib chiqishlari, yoshlarga oid siyosati bo'yicha bergen takliflari, muammo va yechim aks etgan sahna ko'rinishlari, savollarga to'gri va tezkorlikni saqlagan holda javob bergani uchun jami 175 ball bilan 1-o'rinni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining "Irrigator" jamoasi egalladi. Institutimiz sharafini himoya qilayotgan talabalar har bir shartda munosib ravishda, shiddat bilan, kuch-g'ayrat bilan chiqish qilishdi va katta ustunlikga ega bo'lishdi.



Institutimiz jamoasini ushbu g'alaba bilan, 1-o'rin bilan tabriklaymiz. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining "Tafakkur sinovlari" Respublika tanlovida ishtirok etayotgan "IRRIGATOR" jamoasi 1-o'rin g'olib, mintaqaviy bosqich yo'llanmasi egasi. Tabriklaymiz. Jamoa a'zolariga, barcha institut talaba-yoshlari nomidan minnatdorchilik bildiramiz. Tanlovda ishtirok etishda yaqindan yordam bergen institut rahbariyatiga, yoshlar ittifoqi faol talabalaridan iborat ishchi guruh a'zolariga katta rahmat aytamiz. Keyingi bosqichda faqat va faqat 1-o'rinni kutib qolamiz! G'alabalar bardavom bo'lsin.

Institut yoshlar ittifoqi yetakchisi Akmal Berdimurodov axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov